

ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2522,8 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **1922,4 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **76,2 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **20,2 %** ni tashkil etdi.

Andijon viloyat bo'yicha **2020** yilning yanvar oyida viloyatimiz korxonalari tomonidan **2522,8** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* **109,4 %** ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarining eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **109,0 %** oshgan, jami sanoatdagi ulushi **96,6** foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan **51,4 %** ni tashkil etdi, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,4** foizni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan **144,1 %** ni, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **2,7** foizni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari o'tgan yilga nisbatan **152,9 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,3** foizni tashkil etdi.

* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

**Tog'-kon sanoati va ochiq
konlarni ishlash.
Ishlab chiqarish hajmi
10,3 mlrd so'm**



**Ishlab chiqaradigon sanoat.
Ishlab chiqarish hajmi
2438,4 mlrd so'm**



**Elektr, gaz, bug bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash. Ishlab
chiqarish hajmi 67,0
mlrd so'm**



**Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish.
Ishlab chiqarish hajmi 7,1
mlrd so'm**

2020 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **10,3** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,4 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **2438,4** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **96,6 %** ni tashkil etdi.





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **67,0** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **2,7 %** ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **7,1** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni tashkil etdi.



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

Viloyatda yanvar oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2020 yil yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2019 yil yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)	dona	17700	13866
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	2351,6	1697,0
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar suv va suvsiz muhitda	tonna	154,7	84,6
Tabiiy gaz	mln. kub. metr	15,9	4,9
O'simlik yog'i	tonna	585,0	1622,7

ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'lchov birligi	2020 yil yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2019 yil yanvar oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Neft	ming tonna	0,5	5,7
Bugdoy uni	tonna	12631,0	11087,0
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj fudbol-kalar, maykalar, boshqa kiyiladigon kiyimlar va ish kiyimlari	ming dona	154	157
Alyuminiydan elektr o'ralgan sim, po'lat arqonlar, past kuchlanishdagi kabel, to'kilgan shnurlar va shu kabi buyumlar	tonna	852,2	888,7
Aroq – (spirt 100%)	ming litr	46,2	74,0


ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi ulushi, %

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 60,7 % ulushini, Andijon shahri 18,0 %, Honobod shahri 3,3 %, Andijon tumani 2,5 %, Shahrixon tumani 2,0 %, Baliqchi tumani 1,2 %, Izboskan tumani 0,9 %, Xo'jaobod tumani 1,3 %, Oltinkol tumani 2,3 %, Qo'rgontepa tumani 1,7 %, Jalaquduq tumani 1,4 %, Marhamat tumani 0,9 %, Pahtaobod tumani 1,0 %, Bo'ston tumani 1,2 % hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Shu bilan birga eng kam ulush Ulug'nor (0,8 %) va Buloqboshi 0,8 % tumanlariga to'g'ri keladi.



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

*2020 yilning yanvar oylarida shahar va tumanlar kesimida jami
sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so`m)*



Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2020 yilning yanvar oyida jami 2522,8 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 1532,8 mlrd so'mni, Andijon shahrida 453,2 mlrd so'mni, Honobod shahrida 82,9 mlrd so'mni, Andijon tumanida esa 62,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora - tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **1922,4** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **10,0 %** ga o'sishni ta'minladi, ja'mi sanoatdagi ulushi esa **76,2 %** ga yetdi.


*2020 yilning yanvar oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi 1922,4 mlrd.so'm*



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol mollar ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'linadi.

Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

*2020 yilning yanvar oyida shahar va tumanlar bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati*

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvar oyiga nisbatan o'sish, %
Andijon viloyat boyicha	1922,4	100	110
Andijon shahar	99,8	5,2	106,2
Honobod shahar	11,3	0,6	114,5
Tumanlar			
Andijon	37,0	1,9	105,2
Asaka	1489,9	77,5	110,2
Baliqchi	26,9	1,4	108,0
Buloqboshi	16,1	0,8	108,1
Bo'ston	15,5	0,8	161,1
Jalaquduq	19,7	1,0	105,9
Izboskan	15,1	0,8	103,2
Ulugnor	5,9	0,3	103,0
Marhamat	18,7	1,0	113,4
Oltinko'l	40,9	2,1	110,8
Pahtaobod	15,9	0,8	107,5
Xo'jaobod	32,7	1,7	101,7
Shahrixon	39,5	2,1	105,5
Qurgontepa	37,7	2,0	121,5


ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

davomi

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 20,2 % tashkil etmoqda.

2020 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (100,0 %) va Bo'ston tumanida (100,0 %) va Shahrixon tumanida (100,0 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,3 %), Honobod shahri (14,5 %) kuzatildi.

ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

d a v o m i

*2020 yil yanvar oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi*




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 64587,9 ming so'm, Honobod shahrida 28041,8 ming so'm, Andijon shahrida 11350,3 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 10663,6 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Andijon viloyatida 6649 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2571 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 38,7 %) Andijon shahriga, 787 tasi (11,8 %) Asaka tumaniga va 564 tasi (8,5%) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020 yil yanvar holatiga)



Andijon viloyatida 2020 yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2020 yil yanvar oylarida viloyatda jami 127 ta yangi sanoat korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ulardan 26 tasi Andijon shahri, 13 tasi Shahrixon tumani, 17 tasi Asaka tumani, 7 tasi Oltinko'l tumani, 8 tasi Andijon tumani, 4 tasi Marhamat tumani, 10 tasi Qo'rgontepa tumani, 9 tasi Xo'jaobod tumani, 4 tasi Izboskan tumani, 7 tasi Jalaquduq tumani, 4 tasi Baliqchi tumani, 4 tasi Paxtaobod tumani, 5 tasi Buloqboshi tumani, 3 tasi Bo'ston tumani, 4 tasi Honobod tumani va 2 tasi Ulug'nor tumanlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Xisobot davrida horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 398,3 mlrd. So'mli mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,0 % tashkil etdi . O'tgan yilda qo'shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 13,7 % tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 15,8 % tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,5 % oshgan.

